



Markaziy Osiyoda suv resurslarini barqaror boshqarish



SWAN HAQIDA



Markaziy Osiyoda iqtisodiy rivojlanish ko'p jihatdan atrof-muhit va resurslardan to'g'ri foydalanishga bog'liq. Suvga bo'lgan ehtiyojning kattaligi va suvdan foydalanish muayyan tartib bilan amalga oshirilmasligi, xususan qishloq xo'jaligida sug'orish tizimi yetarli darajada samarali yo'lga qo'yilmaganligi mintaqada suv bilan bog'liq bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. SWAN Markaziy

Osiyoda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirishga hamda shu sohada mutaxassislarning yangi avlodini tayyorlashga yo'naltirilgan loyihadir.

PROYEKTNING MAQSADI

SWAN Markaziy Osiyoda suv resurslarini barqaror boshqarishga bo'lgan kuchli ehtiyojga javob sifatida, shu bilan birgalikda Markaziy Osiyo davlatlari, Polsha, Italiya, Ispaniya va Slovakiya universitetlari va institutlarining ko'p yillik hamkorliklari natijasida tashkil topdi. Muayyan reja ishlab chiqish uchun konsorsium muhokamalari natijasida har tomonlama tayyorgarlik amalga oshirildi.

VAZIFALARI

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro suv resurslarini boshqarish sohasida hamkorlik yetarli darajada shakllanmaganligi va suv resurslari barqaror boshqarilmasligi sababidan ko'pgina muammolarga duch kelinmoqda. SWAN ushbu muammolarni hal qilish uchun o'z oldiga quyidagi maxsus vazifalarni qo'ygan:

- ❖ Suv resurslarini barqaror boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistratura uchun o'quv rejasini ishlab chiqish;
- ❖ Suv resurslarini barqaror boshqarish Markazi va mintaqaviy tarmoq o'rnatish.




KUTILAYOTGAN NATIJALAR

- ❖ Suv resurslarini barqaror boshqarish mutaxassisligi bo'yicha mintaqaviy miqyosda Bolonya jarayoni talablariga mos bo'lgan o'quv rejasini ishlab chiqish;
- ❖ Suv resurslarini barqaror boshqarish Markazi va mintaqaviy tarmoq o'rnatish;


- ❖ Hamkor davlatlar talabalari va o'qituvchilari uchun Yevropa Ittifoqida ta'lim olish bo'yicha almashinuv dasturini yaratish;
- ❖ Veb-sahifalar, ichki va tashqi axborot kunlari, tarmoq doirasidagi dasturlar va turli nashrlar orqali suv resurslarini barqaror boshqarishga oid bilimlarni ommalashtirish;
- ❖ Yangi magistrlik dasturlari va suv resurslarini barqaror boshqarish markazlari orqali barqarorlikka erishish;
- ❖ Ichki va tashqi sifatni ta'minlash maqsadida Sifat Qo'mitasini tashkil etish.

YANGI FANLAR

Suv tizimlarini modellashtirish: gidrologiya, gidravlika va tizimni modellashtirish asoslarini o'rganishga keng yo'l ochadi. Qatnashchilar modellarning transparent elektron jadvalidan foydalanib uning qanday ishlashi bilan tanishadilar va o'zlarida boshqa yanada rivojlangan modellashtirish yondashuvlari bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar;



Suv resurslarini rejalashtirish: suv resurslarini rejalashtirishning sinalgan va innovatsion yondashuvlari, turli mezonlar asosida daryo havzasi darajasida strategiya ishlab chiqish va boshqaruvni baholash usullari bilan tanishtiradi;



Suv va atrof-muhitni himoya qilishga doir qonunlar va tashkilotlar: qatnashchilarga suv va atrof-muhitni himoya qilish haqidagi qonunga bo'lgan ehtiyojni tushunishga hamda suv resurslarini barqaror boshqarish uchun eng maqbul tashkiliy va boshqaruvga oid ma'lumotlar bilan tanishishga yordam beradi;

Boshqaruvchi tashkilotlar va o'zgarishlar: qatnashchilarni tashkilot va uning boshqaruvchilari unumli ishlashlari uchun nimalar zarurligi hamda shu unumli ishni qanday barqaror saqlab qolish mumkinligi haqidagi bilimlar bilan chuqur tanishtiradi.

MUDDATI

2010 yil 15 yanvardan – 2013 yil 14 yanvagacha

PROYEKT KONSORSIUMI



Grant oluvchi

Alikante universiteti, Ispaniya



O'zbekiston

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti



Qozog'iston

Ta'lim va fan vazirligi

Qozoq milliy agrar universiteti

Qozoq milliy texnika universiteti



Qirg'iziston

Qishloq xo'jaligi, suv resurslari va qayta ishlash vazirligi

Ta'lim va fan vazirligi

Qirg'iz milliy universiteti

Qirg'iz davlat texnika universiteti



Tojikiston

Yer melioratsiyasi va suv resurslari vazirligi

Tojik texnika universiteti

Tojikiston texnologiya universiteti



Slovakia

Bratislavadagi Slovakiya texnologiya universiteti



Polsha

Varshava tabiiy fanlar universiteti



Italiya

Genuya universiteti

Murojaat uchun:



Manzil:

180100, O'zbekiston Respublikasi, Qarshi shahri,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 225.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Proyekt koordinatori:

Janob Nizar Ayadi – Alikante universiteti, Ispaniya

Tel.: +34 965909718; email: nizar.ayadi@ua.es

Mahalliy koordinator:

Mamatov Farmon, QMII

Tel.: +998 75 2294063; email: fmamatov50@mail.ru

<http://www.swan-water.eu>



Buklet TEMPUS- SWAN homiyligida nashr qilindi: "Markaziy Osiyoda suv resurslarini barqaror boshqarish"